Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

«OTAMDAN QOLGAN DALALAR» ROMANIDA AVLODLAR TAQDIRINING QARSHILIKDAN ITOAT SARI BADIIY TADRIJI

Diyoraxon G'ofurjon qizi Qo'shmatova*
Farg'ona davlat universiteti, izlanuvchi
✉ diyorakhonkushmatova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada To'g'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanidagi uch avlod Jamoliddin ketmon, Aqrab va Dehqonqul obrazlari izchil badiiy tadrij sifatida tahlil qilinadi. Avlodlar taqdirida ikki yo'nalish ajratiladi: milliy o'zlikning qarshilikdan itoat sari so'nishi hamda avlodlarni bog'lab turuvchi yerga sadoqatning uzilmasligi. Matniy tahlil asosida bu ikki yo'nalishning uyg'unligi asarning bosh g'oyasini belgilashi asoslanadi.

Kalit so'zlar

To'g'ay Murod, «Otamdan qolgan dalalar», avlodlar tadriji, badiiy obraz, milliy o'zlik, qarshilik, itoat, ramziy roman.

DOI: 10.5281/zenodo.21743794

KIRISH

To'g'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romani mustabid tuzum davrida o'zligini yo'qota boshlagan xalq fojiasini ramziy tarzda aks ettiradi. Asar voqealari bosh qahramon Dehqonqul tilidan hikoya qilinadi, biroq u o'z hikoyasini o'zidan emas, bobosi Jamoliddin ketmon va otasi Aqrab taqdiridan boshlaydi, chunki insonning ildizini bilmay turib, uning bugungi holatini to'liq tushunib bo'lmaydi. Shu bois uch avlod obrazi asar tuzilishining o'zagi bo'lib xizmat qiladi.

Badiiy obraz voqelikni umumlashtirgan holda, hissiy va ta'sirchan tarzda aks ettiruvchi asosiy vosita hisoblanadi [3, B. 42]. Nazarimizda, romandagi uch obrazni ham oddiy oilaviy tarix sifatida emas, izchil badiiy tadrij sifatida o'rganish to'g'riroq. Chunki bobodan nabiraga qarab yagona yo'nalish ko'zga tashlanadi: erksevarlik, insoniy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'usi avloddan avlodga so'nib boradi.

Shu bilan birga, bu tadrijni faqat tanazzul deb baholash bir tomonlama bo'lardi. Bizningcha, uch avlodni o'zaro bog'lab turadiganyana bir jihat bor bu yerga, dalaga bo'lgan mustahkam mehr. Quyida uch avlod obrazini ana shu ikki yo'nalish: o'zlikning so'nishi va yerga bog'liqlikning saqlanib qolinishi yoritib beriladi.

JAMOLIDDIN KETMON – YAXLIT SHAXS VA FAOL QARSHILIK

Tadrijning boshida bobo Jamoliddin ketmon turadi. U shu qadar yer kishisiki, xalq uni o'zidan ko'ra ketmoni bilan taniydi:

«Jamoliddinni ketmoni dalasiday keladi!» – deydi el [1, B. 15].

Demak, bu obrazning asosida mehnat va yerga bo'lgan uzviy bog'liqlik yotadi. Uning ismi ham shunchaki «Jamoliddin» emas, «Jamoliddin ketmon» ya'ni u o'z mehnat quroli va o'z yeri bilan bir butun bo'lib ketgan. Bu butunlik bosqinchilar kelishi bilan buziladi. Bobo o'z qo'li bilan parvarishlagan dalasini yalang'och bosqinchilar bulg'aganda, u yerni butunlay tashlab ketishga qaror qiladi:

«Dalamda musulmon oyoq bosar yer qolmadi. Dalamda dehqon oyoq bosar yer qolmadi. Bo'ldi, endi qaytib oyoq bosmayman» [1, B. 22].

Fikrimizcha, aynan shu qaror obraz mohiyatini ochib beradi. U qaram bo‘lib, bulg‘angan yerda qolishni emas, hamma narsani tashlab, toza tuproq izlab ketishni tanlaydi. Bu ojizlik belgisi emas, balki o‘zligini saqlab qolishning yagona yo‘li sifatidagi ma’naviy qarshilik. Bobo uchun yerga egalik qilishdan ko‘ra uning pokligi muhimroq. Nazarimizda, bu tadrijning eng yuqori nuqtasi: bu bosqichda insonning o‘zligi, e’tiqodi va yeri hali butun holicha turadi. Keyingi avlodlarda esa bu butunlik asta-sekin yemirila boradi.

AQRAB – O‘TISH AVLODI VA «O‘Z TUPROG‘IDA O‘LISH»

Ikkinchi avlod bu ota Aqrab, u qarshilikni ochiq, qurolli kurash darajasiga olib chiqadi. U bosmachi (muallif uni «mujohid» deb ataydi) sifatida sho‘ro hukumatiga qarshi jang qiladi. Ammo bu obrazning eng yorqin qirrasi jang paytida emas, asirga tushib, o‘lim oldida turgan paytda namoyon bo‘ladi. Chanishev uni Rossiyaga olib borib otmoqchi bo‘lganda, Aqrab bunga qat’iy qarshi chiqadi:

«Chanishev! Men o‘zbakman, o‘zbak! O‘zbak qaerda tavallud topadi – ana o‘sha yerda umr kechiradi! (...) O‘zbak o‘z el-yurtida o‘ladi! O‘zbak o‘z o‘lan-to‘shagida o‘ladi! O‘zbak – ana shunday o‘zbak!» [1, B. 67].

Demak, Aqrab uchun o‘lishning o‘zi emas, qayerda o‘lish muhim. U begona yurtda ko‘milishni istamaydi, chunki unda farzandlari uning qabrini ziyorat qila olmaydi, ajdod bilan avlod o‘rtasidagi bog‘liqlik uziladi. Uning bu talabi o‘lim oldida yanada kuchli eshitiladi: u tirik qolishni emas, faqat o‘z yurtida jon berishni so‘raydi:

«...mana, ko‘krak – ot! Lekin – o‘z el-yurtimda ot! Shahid bo‘lsam – o‘z el-yurtimda shahid bo‘layin!» [1, B. 68].

Fikrimizcha, aynan shu sahna Aqrab obrazini alohida yuksaltiradi. Uning matonati shu darajada kuchliki, hatto dushmani Chanishev otdan tushib, unga ta’zim qiladi. Ya’ni jismonan mag‘lub bo‘lgan inson ma’nan g‘olib chiqadi. El uning qoni to‘kilgan tuproqni devor bilan o‘rab, muqaddas joyga aylantiradi. Nazarimizda, Aqrab tadrijning o‘rta bo‘g‘ini: bobodan kelgan yaxlitlik hali saqlanib turibdi, lekin endi uni faqat jon evaziga himoya qilish mumkin. Aqrabdan keyin bu qadriyatlarni hayoti bilan himoya qiladigan odam qolmaydi.

DEHQONQUL – ITOAT, MA’NAVIY UZILISH VA QAYTISH IMKONIYATI

Uchinchi avlod Dehqonqul, tadrijning yakunlovchi bo‘g‘ini. U sho‘ro tuzumi allaqachon o‘rnashib bo‘lgan davrda ulg‘ayadi, ajdodlariga xos erksevarlik va o‘zlikni anglash tuyg‘usi unga o‘tmagan, undagi yagona meros mehnatsevarlik edi. U butun umrini paxta orasida o‘tkazadi: hukumat «o‘tir» desa o‘tiradi, «tur» desa turadi. Nazarimizda, uning eng katta fojiasi bu o‘z ahvolini fojia deb bilmasligida. Dehqonqul yeriga chin dildan mehr qo‘ygan, halol mehnatkash, biroq bu mehnat endi o‘zlik ifodasi emas, tuzumga bo‘lgan ko‘r-ko‘rona itoatga aylangan. Umr bo‘yi qilgan fidokorligi evaziga esa u «paxta ishi» qatag‘onida qamaladi va sakkiz yilga hukm qilinadi.

Shunga qaramay, roman aynan shu o‘rinda kutilmagan burilish yasaydi. Butun umri jim yashagan Dehqonqul finalda, hamma narsasidan ayrilgan paytda mustamlakachilik timsoli bo‘lgan Ivan Ivanovichga dilidagi hamma gapni aytadi:

«Ivan Ivanovich! Men senga yuz o‘ttiz yil yurtim to‘rini berdim, yuz o‘ttiz yil uyim to‘rini berdim – ammo sen bilan el bo‘lmadim! (...) Men yuz o‘ttiz yil o‘zim kiymadim – senga kiydirdim, yuz o‘ttiz yil o‘zim yemadim – senga yedirdim, yuz o‘ttiz yil o‘zim ichmadim – senga ichirdim... ammo sen bilan el bo‘lmadim!» [1, B. 370].

Fikrimizcha, bu monolog – asarning g‘oyaviy cho‘qqisi. Dehqonqul o‘z hikoyasini bitta shaxs taqdiri doirasidan chiqarib, butun mustamlaka davri miqyosiga ko‘taradi. Takror-takror aytilgan «sen bilan el bo‘lmadim» degan e’tirof asarning bosh ma’nosini o‘zida jamlaydi: jismonan bo‘ysunish o‘zlikning butunlay yo‘qolishini anglatmaydi. Shu bois uning taqdirini ham faqat tanazzul deb bo‘lmaydi: eng ko‘p ezilgan avlod aynan mustamlakaning asl mohiyatini ochib beradi. Uning oxirgi so‘zlari esa kelajakka qaratilgan umidga aylanadi:

«Men... dalalarimni deya, qaytib kelaman! Tupkani tagidan bo‘lsa-da, qaytib kelaman! (...) Men qaytib kelaman» [1, B. 372].

Demak, Dehqonqulni ajdodlari bilan bog‘lab turgan ip ya’ni yerga bo‘lgan mehr eng og‘ir paytda ham uzilmaydi. Bizningcha, jismoniy qaramlik cho‘qqisida qahramon aynan yer orqali o‘zligiga qaytishni e’lon

qiladi.

XULOSA

Demak, «Otamdan qolgan dalalar»da uch avlod obrazi izchil badiiy tadrijning bo‘g‘inlari bo‘lib, bu tadrij ikki yo‘nalishda kechadi. Birinchisi, pasayuvchi yo‘nalish: milliy o‘zlik va erksevarlikning so‘nishi. Jamoliddin o‘zligi, e’tiqodi va yeri bir butun bo‘lgan shaxs. Aqrab qarshilikni o‘z tuprog‘ida shahid bo‘lish darajasiga ko‘taradi. Dehqonqul esa ajdod qadriyatlaridan uzilgan, faqat mehnatsevarlikni meros olgan itoatkor «yangi inson»ga aylanadi. Ya’ni «qarshilikdan itoat sari» degan yo‘l o‘zlikning bosqichma-bosqich so‘nishi tarixidir.

Ikkinchisi, uzilmaydigan yo‘nalish: uch avlodni bog‘lab turgan yerga sadoqat. Nazarimizda, aynan shu yo‘nalish asarni umidsiz fojiadan ajratib turadi. Dehqonqulning «qaytib kelaman» degan e’tirofi o‘zlik butunlay yo‘qolmaganini, uni yer orqali tiklash imkoni borligini ko‘rsatadi. Bizningcha, romanning badiiy kuchi ham shu ikki yo‘nalishning birligida: bosqinchi jismonan g‘olib bo‘lishi mumkin, ammo inson o‘z yeri bilan bog‘liq ekan, uni butkul bo‘ysundirib bo‘lmaydi.

Uch avlod tadriji – asar tuzilishining o‘zagi. To‘g‘ay Murod shu uch obraz orqali xalq tarixining bir asrdan ortiq davrini yagona badiiy tuzilishga jamlaydi va oddiy o‘zbek mehnatkashining badiiy obrazini yaratadi [2, B. 3]. Adibning o‘ziga xos badiiyati, tili va ifoda uslubi, shuningdek, bu romanning milliy adabiyot tarixidagi o‘rni adabiyotshunoslikda alohida e’tirof etilgan. Nazarimizda, avlodlar tadriji nuqtai nazaridan yondashish adibning ramziy roman uslubini va milliy o‘zlik masalasini badiiy hal qilishini chuqurroq ochadi. Mana shu jihat bu yo‘nalishning To‘g‘ay Murod ijodini o‘rganishdagi ahamiyatini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Murod T. Otamdan qolgan dalalar: Roman. – Toshkent: Zukko kitobxon, 2025. – 384 b.
2. Normatov U. Benazir iste’dod sohibi // Murod T. Otamdan qolgan dalalar: Roman. – Toshkent: Zukko kitobxon, 2025. – B. 3–12.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.